



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2022-yilning yanvar-iyun oylarida investitsion faoliyoti oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,1 %ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida 7 182,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 67,9 %i yoki 4 879,7 mlrd. so'mni jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 32,1 % yoki 2 302,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos 0,006 % punktga ko'paydi, 9,2 %ni yoki 661,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 521,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 90,8% investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,006 % punktga kamaydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar

661,1
mlrd. so'm

7 182,5

mlrd. so'm
o'sish sur'ati
126,1 %

Markazlashmagan investitsiyalar

6 521,4
mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar

230,2
mlrd. so'm


Jami xorijiy investitsiya va kreditlar

3 583,4
mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya


1 524,6
mlrd. so'm

**Markazlashgan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, %da**



**Markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, %da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, o'sish sur'ati %da**



2022-yilning yanvar - iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari va mahaliy budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1 517,7 so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,1 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,1 %i yoki 1 157,4 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 524,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 21,2 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm





Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 493,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,9 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 230,2 mlrd. so'm (3,2 % va 1,6 % punktiga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 1 828,5 mlrd. so'm (25,5 % va 3,7 % punktga ko'paydi), Respublika budjeti 368,5 mlrd. so'm (5,1 % va 0,2 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 62,5 mlrd. so'm (0,9 % va 0,7 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 154,9 %ga o'shdi. Bunday yuqori o'sishga Qo'shtega tumanida joylashgan "GLOBAL TEXTILE INFINITY" MCHJ - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, hamda Toshloq tumanida joylashgan "New World Gazoil" MCHJ tomonidan neft va gaz kondensatlarini qayta ishlashni tashkil etish loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.


Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,8 %ni tashkil etib, "Farg'ona Yasin Qurilish Mollari" MCHJ QK va "Posco International Textile" MCHJ XK tomonidan paxtachilik klasterini tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.

Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Farg'ona viloyati:	7 182,5	5,1	21,1	16,1	49,9	0,9	6,9	0,0
shaharlar:								
<i>Farg'ona sh.</i>	<i>1771,8</i>	<i>6,3</i>	<i>45,3</i>	<i>9,2</i>	<i>26,9</i>	<i>0,9</i>	<i>11,4</i>	
<i>Qo'qon sh.</i>	<i>395,4</i>	<i>4,3</i>	<i>24,7</i>	<i>18,5</i>	<i>47,9</i>	<i>0,0</i>	<i>4,6</i>	
<i>Quvasoy sh.</i>	<i>316,5</i>	<i>1,7</i>	<i>17,1</i>	<i>4,2</i>	<i>73,8</i>	<i>0,0</i>	<i>3,3</i>	
<i>Marg'ilon sh.</i>	<i>421,3</i>	<i>1,8</i>	<i>20,6</i>	<i>17,1</i>	<i>52,7</i>	<i>0,0</i>	<i>7,8</i>	
Tumanlar:								
<i>Oltiariq</i>	<i>281,1</i>	<i>0,6</i>	<i>24,3</i>	<i>23,3</i>	<i>37,4</i>	<i>2,5</i>	<i>11,9</i>	
<i>Qo'shstepta</i>	<i>517,8</i>	<i>1,7</i>	<i>2,9</i>	<i>23,0</i>	<i>71,9</i>	<i>0,5</i>	<i>0,0</i>	
<i>Bag'dod</i>	<i>283,6</i>	<i>5,0</i>	<i>17,2</i>	<i>23,7</i>	<i>49,1</i>	<i>0,3</i>	<i>4,7</i>	
<i>Buvayda</i>	<i>141,9</i>	<i>6,0</i>	<i>20,1</i>	<i>50,2</i>	<i>15,2</i>	<i>2,0</i>	<i>6,5</i>	
<i>Beshariq</i>	<i>357,0</i>	<i>6,0</i>	<i>5,9</i>	<i>8,1</i>	<i>77,6</i>	<i>0,1</i>	<i>2,4</i>	
<i>Quva</i>	<i>184,0</i>	<i>8,1</i>	<i>18,6</i>	<i>33,8</i>	<i>31,0</i>	<i>2,3</i>	<i>6,3</i>	
<i>Uchko'prik</i>	<i>398,7</i>	<i>2,2</i>	<i>7,9</i>	<i>8,1</i>	<i>78,2</i>	<i>0,0</i>	<i>3,6</i>	
<i>Rishton</i>	<i>234,5</i>	<i>1,6</i>	<i>2,1</i>	<i>12,6</i>	<i>76,1</i>	<i>7,1</i>	<i>0,4</i>	
<i>So'x</i>	<i>96,8</i>	<i>29,2</i>	<i>39,6</i>	<i>19,8</i>	<i>2,3</i>	<i>0,0</i>	<i>9,1</i>	
<i>Toshloq</i>	<i>559,3</i>	<i>5,5</i>	<i>4,5</i>	<i>15,7</i>	<i>60,7</i>	<i>0,0</i>	<i>13,6</i>	
<i>O'zbekiston</i>	<i>310,3</i>	<i>4,2</i>	<i>10,0</i>	<i>21,9</i>	<i>57,4</i>	<i>3,3</i>	<i>3,3</i>	
<i>Farg'ona t</i>	<i>235,4</i>	<i>10,3</i>	<i>26,6</i>	<i>6,7</i>	<i>54,0</i>	<i>0,5</i>	<i>1,9</i>	
<i>Dang'ara</i>	<i>347,8</i>	<i>10,0</i>	<i>7,6</i>	<i>22,6</i>	<i>52,2</i>	<i>0,0</i>	<i>7,6</i>	
<i>Furqat</i>	<i>151,7</i>	<i>3,2</i>	<i>14,3</i>	<i>26,5</i>	<i>51,7</i>	<i>0,0</i>	<i>4,3</i>	
<i>Yozyovon</i>	<i>177,6</i>	<i>5,3</i>	<i>10,8</i>	<i>28,5</i>	<i>52,1</i>	<i>0,0</i>	<i>3,3</i>	

*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2022-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



o'sish sur'ati *investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm* *Farg'ona viloyatidagi ulushi*

Buvayda tumani

156,2 %

141,9

2,0 %

Farg'ona viloyatidagi ulushi

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

o'sish sur'ati

101,4 %

5,0 %

357,0

Beshariq tumani

Quva tumani

o'sish sur'ati

145,6 %

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

184,0

Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,6 %

Farg'ona viloyatidagi ulushi

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

o'sish sur'ati

117,9 %

5,6 %

398,7

Uchko'prik tumani

Rishton tumani

o'sish sur'ati

281,3 %

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

234,5

Farg'ona viloyatidagi ulushi

3,3 %

Farg'ona viloyatidagi ulushi

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

o'sish sur'ati

158,9 %

1,3 %

96,8

So'x tumani

Toshloq tumani

o'sish sur'ati

109,7 %

investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

559,3

Farg'ona viloyatidagi ulushi

7,8 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

4,3 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

310,3

o'sish sur'ati

100,9 %

O'zbekiston
tumani

Farg'ona
tumani

o'sish sur'ati

118,6 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

235,4

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

3,3 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

4,3 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

347,8

o'sish sur'ati

187,6 %

Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish sur'ati

100,3 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

151,7

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

2,1 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

2,5 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

177,6

o'sish sur'ati

248,1 %

Yozyovon
tumani

2022-yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 183,9 %ga o'sib, Qo'shtepa tumanida kuzatildi. Bu asosan "GLOBAL TEXTILE INFINITY" MCHJ - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish.

Shuningdek, Rishton tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 281,3 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "RUSO'ZBEKTEKS" MChJ xorijiy korxona tomonidan sochiq va gazlama ishlab chiqarishni tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Farg'ona shahri (24,7 %), Toshloq tumani (7,8 %), hamda Qo'shtepa tumani (7,2 %) ushbu tuman va shaharlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, (%)da



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 3 779,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 52,6 %ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 2 983,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 41,5 %) va boshqa xarajatlarga 420,2 mlrd. so'm (5,9 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Uchko'prik tumanida kuzatildi – 84,6 % yoki 337,4 mlrd. so'mni tashkil etdi..

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quyi daraja Quvasoy shahrida kuzatilib, 16,3 %ni yoki 51,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Qo'shtepa tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 81,1 % yoki 419,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)

Yangi qurilish - 62,2

Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 21,1

Boshqa yo'nalishlar -16,7

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 4 468,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 62,2 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 517,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 21,1 %ini tashkil etdi. Qolgan 16,7 %, ya'ni 1 196,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Jami hajmdagi ulushi %da				
		Qurilish-montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
	Farg'ona viloyati	52,6	41,5	5,9
	shaharlar:			
	Farg'ona	40,0	55,1	4,9
	Qo'qon	61,1	37,8	1,1
	Quvasoy	16,3	79,9	3,8
	Marg'ilon	54,2	44,2	1,6

	<i>tumanlar:</i>			
	<i>Oltiariq</i>	44,9	42,3	12,8
	<i>Qo'shtepa</i>	81,1	17,6	1,3
	<i>Bag'dod</i>	66,6	20,6	12,8
	<i>Buvayda</i>	62,7	29,7	7,6
	<i>Beshariq</i>	32,8	63,6	3,6
	<i>Quva</i>	34,3	56,2	9,5
	<i>Uchko'prik</i>	84,6	12,5	2,9
	<i>Rishton</i>	68,3	25,7	6,0
	<i>So'x</i>	75,9	12,2	11,9
	<i>Toshloq</i>	51,0	46,4	2,6
	<i>O'zbekiston</i>	43,0	44,1	12,9
	<i>Farg'ona</i>	61,1	29,3	9,6
	<i>Dang'ara</i>	65,9	22,7	11,4
	<i>Furqat</i>	74,3	13,8	11,9
	<i>Yozyovon</i>	38,8	50,5	10,7

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan

5 903,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 82,2 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 1 445,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 20,1 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 681,1 mlrd. so'm (9,5 %);
- koks va qayta ishlangan neft mahsulotlarini ishlab chiqarish – 357,0 mlrd. so'm (5,0 %).

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi jami 778,3 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 10,8 %i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 10,8 %i yoki 773,8 mlrd. so'mi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasiga tegishlidir.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida katta ulushga ega sohalar

(jamiga nisbatan %da)



2022-yil yanvar-iyun oylarida 3 583,4 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 49,9 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 644,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 1 939,3 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


mlrd. so'm

	Jami	<i>Shu jumladan:</i>		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
Farg'ona viloyati	3583,4	1524,6	230,2	1828,6
Farg'ona sh.	476,9	107,5	209,8	159,6
Qo'qon sh.	189,4	157,2		32,2
Quvasoy sh.	233,5	22,8	9,4	201,3
Marg'ilon sh.	222,0			222,0
Oltiariq t.	105,2	33,1	0,3	71,8
Qo'shtepa t.	372,2		7,6	364,6
Bag'dod t.	139,3	66,3	1,2	71,8
Buvayda t.	21,6	0,0		21,6
Beshariq t.	276,9	271,5		5,4
Quva t.	57,0	28,9	0,1	28,0
Uchko'prik t.	311,9	263,0		48,9
Rishton t.	178,5	89,0	0,2	89,3
So'x t.	2,2	1,6		0,6
Toshloq t.	339,4	37,6	0,2	301,6
O'zbekiston t.	178,0	151,5		26,5
Farg'ona t.	127,1	59,7		67,4
Dang'ara t.	181,4	66,3	0,1	115,0
Furqat t.	78,3	77,0	1,3	
Yozyovon t.	92,6	91,4		1,2

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1 524,6 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 230,2 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 145,0 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi %da

96,5 %



ming kv.m

571,6

Qishloq joylar ulushi 70,8 %

3,5 %




Qishloq joylar ulushi 100 %da

Yakka tadbirkor uy-joy qurilishi


Qishloq qurilish invest

Foydalanishga topshirilgan ijtimoiy soha obyevtlari tarkibi %da

Shahar joylarda



Qishloq joylarda



Joriy davrda jami umumiy maydoni 571,6 ming kv.m bo'lgan 2553 ta turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 410,4 ming kv.m bo'lgan 1840 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.Umumiy maydoni 551,5 ming kv.m bo'lgan 2539 ta turar-joy obyektlari yakka tartibdagi yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 390,4 ming kv.m bo'lgan 1826 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan. Umumiy maydoni 20,0 ming kv.m bo'lgan 14 ta turar-joy obyektlari Qishloq qurilish invest yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 20,0 ming kv.m bo'lgan 14 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Viloyat bo'yicha 71,5 km suv va 5,2 km gaz tarmog'i ishga tushirilgan bo'lib, ulardan 70,2 km suv va 5,2 km gaz tarmog'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**
249-87-26